

“Sanamlar sarvari” ko’rik - tanlovida

Qumqo’rg’on agrosanoat texnikumida joriy yilning 5-mart kuni 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan “Sanamlar sarvari” ko’rik tanlovi bo’lib o’tdi. Butun dunyoda 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni sifatida nishonlanishi zamirida olam - olam ma’no mujassam.



Ayol bir qo’li bilan beshikni, ikkinchi qo’li bilan esa dunyoni tebratishga qodir bo’lgan muhtarama zot hisoblanadi. Shu bois, istiqlol yillarida yurtimizda xotin-qizlarimizga cheksiz hurmat va ehtirom ko’rsatilib, ularning jamiyatimiz hayotida tutgan o’rinlari yildan-yilga faollashib bormoqda. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan Qumqo’rg’on agrosanoat texnikumida texnikum direktorining bayram tabrigi talaba-qizlariga hamda ayol o’qituvchilarga o’qib eshitirildi.



O’TIBDO’ hamda Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyat boshqarmasi boshligi Sh. Olimov texnikum jamoasi ayollarini bayramlari bilan qutlar ekan, ularga sog’lik-salomatlik tilab va o’z mehnati va fidoyiligi bilan boshqalarga o’rnak bo’layotgan bir guruh xotin-qizlarga esdalik sovg’alarini topshirdi.

TIQXMMI matbuot xizmati

